

# **KO‘CHMAS MULKNI MOL-MULK SOLIG‘IGA TORTILISHINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVIDAN O‘TKAZISH USLUBIYATI**

**K.B.Urazov SamISI prof.  
G‘.O‘.Abduxonov SamISI magistrant**

**Annotatsiya.** Ko‘chmas mulkni mol-mulk solig‘iga tortilishini xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish uslubiyati tadqiq qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Ko‘chmas mulk, mol-mulk solig‘igi, xalqaro standartlar, buxgalteriya hisobi, davlat byujeti, soliq kodeksi.

**Абстрактный.** Исследована методика проведения аудита объектов недвижимости, облагаемых налогом на имущество, на основе международных стандартов.

**Ключевые слова:** недвижимость, налог на имущество, международные стандарты, бухгалтерский учет, государственный бюджет, налоговый кодекс.

**Abstract.** The method of conducting an audit of real estate subject to property tax based on international standards has been researched..

**Key words:** Real estate, property tax, international standards, accounting, state budget, tax code.

Jahon amaliyotida ko‘chmas mulk solig‘i soliqqa tortish bazasi sifatida, uning qiymatidan olinadi. «Buyuk Britaniyada ko‘chmas mulkni soliqqa tortish uchun ikkita soliq qo‘llaniladi: biznes maqsadlarida foydalanimuvchi ko‘chmas mulk solig‘i va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq»<sup>1</sup>. «Irlandiyada yagona ko‘chmas mulk solig‘i mavjud bo‘lib, u tijorat va turar joy maqsadlarida foydalanimuvchi ko‘chmas mulkka soliq solinadi. Tijorat maqsadlarida foydalanimuvchi ko‘chmas mulkka soliq solish egallangan maydonning nominal qiymatini hisoblash asosida amalga oshiriladi va soliq hisoblash majburiy»<sup>2</sup>. «Rossiya Federatsiyasida ko‘chmas mulkning kadastr qiymatida soliqqa tortish amaliyoti 2 ta Federal qonunlarga asosan 2020 yil 1 yanvardan joriy etildi»<sup>3</sup>. Jahon

---

<sup>1</sup> Obuoforibo, B. United Kingdom – Corporate Taxation / B. Obuoforibo. – IBFD, Tax Research Platform: Country Analyses – United Kingdom. [Электронный ресурс] Режим доступа: <http://www.ibfd.org> (дата обращения: 15.03.2021).

<sup>2</sup> Ostaszewska, O. Ireland – Corporate Taxation/O. Ostaszewska. – IBFD, Tax Research Platform: Country Analyses – Ireland. [Электронный ресурс] Режим доступа: <http://www.ibfd.org> (дата обращения: 16.03.2021).

<sup>3</sup> Федеральный закон от 29 сентября 2019 г. N 325-ФЗ "О внесении изменений в части первую и вторую Налогового кодекса Российской Федерации", Федеральный закон от 28 ноября 2019 г. N 379-ФЗ "О внесении изменений в статьи 333.33 и 378.2 части второй Налогового кодекса Российской Федерации".

amaliyotida ko‘chmas mulkni soliqqa tortishda soliq bazasi sifatida kadastr qiymati olinishi bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishni zarurat qilib qo‘ymoqda.

O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni baholash, buxgalteriya hisobini tashkil etish va amaliyotga MHXSlarini qo‘llash, ko‘chmas mulk ob’ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish muhimligini belgilaydi. Ko‘chmas mulk ob’ektlarini baholashda bozor qiyamatiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymatini hisoblashning aniq metodikasi ishlab chiqilmaganligi, soliqqa tortiladigan ko‘chmas mulk ob’ektlarining ro‘yxati to‘liq shakllanmaganligi, ularning moliyaviy hisobini tashkil etishda MHXSlar amaliyotda to‘liq qo‘llanilmayotganligi dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda, soliqqa tortiladigan ko‘chmas mulk ob’ektlarining to‘liq ro‘yxati shakllantirilmagan. Ushbu muammoning yechimi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 411-moddasi «Soliq solish ob’ekti»ga qo‘srimcha va o‘zgartirish kiritish hisoblanadi. Shuningdek soliqqa tortiladigan ko‘chmas mulk ob’ektlarining ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

**13- jadval**  
**O‘zbekiston Respublikasida Davlat byudjetiga 2016 - 2020 yillarda mol-mulk solig‘i tushumining tahlili (mlrd. so‘m)**

Soliq turi va nomi	2016 y	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y
Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i	5 306,3	6 867,4	9 714,5	19 680,8	20 796,0
Shu jumladan;					
Mol-mulk solig‘i	1 659,2	2 129,7	2 158,9	2 360,3	2 369,6
Resurs to‘lovlariga nisbatan mol-mulk solig‘i ulushi (foizda)	31,3	31,0	22,2	12,0	11,4

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i tushumi 2016 yilda 5 306,3 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019 yilda 19 680,8 mlrd. so‘mni, 2020 yilda 20 796,0 mlrd. so‘m bo‘lgan. Mol-mulk solig‘ining tushumi 2016 yilda 1 659,2 mlrd. so‘mni 2019 va 2020 yillarda mos ravishda 2 360,3 mlrd so‘m va 2 369,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Mol-mulk solig‘ining resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘ining mol-mulk solig‘i tushumidagi ulushi 2016 yilda 31,3 foizni 2019 yilda 12 foiz va 2020 yilda 11,4 foizni tashkil qilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Маликов Т.С., Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисод-молия, 2009.-556 б.;
- 2.Олимжонов О.О. Адолатли солиқ–мамлакат таянчи. Солиқ тўловчи журнали, 2006. № 6.;
- 3.Тошматов Ш.А. Қўшилган қиймат солиғи. Монография. Тошкент.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2004.-160 б.;
- 4.Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. Диссертация автореферати. Т., 2008.-37 б.;
- 5.Ибрагимов А.К., Ризаев Н.К. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. Ўқув қўлланма. Т.: Молия. 2008.-465 4.Жўраев А., Тошматов Ш., Абдурахмонов О. Соликлар ва солиқка тортиш. Ўқув қўлланма. 5,Т.:NORMA. 2009. – 184 бет.; Тошмуродова Б.Э. Иқтисодиётни ривожлантиришда сукукнинг аҳамияти:
- 6.Малайзия аҳолисининг даромадига таъсири мисолида. Халқаро молия ва ҳисоб илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2020 йил.;
- 7.Каримов Н.Г. Инвестиция фондларида молиявий муносабатларни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари
- 8.Пўлатов, Ҳ. Ў., & Абдугаппаров, Ш. А. (2022). БУХГАЛТЕРИЯ ХИСОБИНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТИДА ФОЙДА СОЛИФИНИНГ ХИСОБЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. Экономика и социум, (5-1 (96)), 593-596.
- 9.Пўлатов, Ҳ. Ў., & Абдурасолов, Ж. А. (2022). ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК ХИСОБНИ АЙРИМ МАСАЛЛАРИ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 679-682.
- 10.Пўлатов, Ҳ. Ў. (2021). УЛГУРЖИ САВДО КОРХОНАЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и социум, (4-2 (83)), 318-323.
- 11.Пўлатов, Ҳ. Ў. (2021). ТУРЛИ ФАОЛИЯТ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ КОРХОНАЛАРДА ТОВАР АЙЛАНМАСИ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Экономика и социум, (5-2 (84)), 186-189.